



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 21 y. "30" iyul № 28

“Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ- 4796- son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi qiymatini baholash bo'yicha halqaro tajribalardan foydalangan holda, yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2015- yil 9- iyundagi 9- son “Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov